

**Toshkent davlat yuridik universitetining
USTAVI
(24.05.2023-yil holatiga)**

I. Umumiy qoidalar

1. Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o'rinlarda – Universitet) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 28-iyundagi PQ-1990-son "Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tashkil etilgan.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-son "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, Universitet "yurisprudensiya" mutaxassisligi bo'yicha yuridik kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash bo'yicha bazaviy oliy ta'lim va ilmiy-metodik muassasasi hisoblanadi.

3. Universitet o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Hay'at qarorlari va buyruqlari, shuningdek, mazkur Ustavga amal qiladi.

4. Universitet o'z maqomiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Adliya vazirligi bilan birgalikda, qonunchilik hujjatlarida boshqa holat nazarda tutilmagan bo'lsa, Universitetning o'quv-tarbiya jarayoniga tashkiliy va metodik rahbarlikni amalga oshiradi.

5. Universitetning tarkibiy bo'linmalariga fakultetlar, kafedralar, boshqarmalar, markazlar, bo'limlar, yuridik klinika, tipografiya va boshqa bo'linmalar kiradi.

Universitet huzurida yuridik shaxs hisoblangan M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey, Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha professional o'qitish markazi faoliyat yuritadi.

6. Universitet o'z faoliyatini davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, advokatura, boshqa tashkilotlar, shu jumladan, xorijiy hamkor tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

7. Universitet yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasida shaxsiy hisob raqamlariga, milliy va xorijiy valyutalardagi bank hisob raqamlariga, o'z nomi davlat tilida ko'rsatilgan va O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga, tegishli muhr, shtamp va o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan ramzlarga hamda rekvizitlarga egadir.

Universitetning rasmiy nomi:

davlat tilida: **“Toshkent davlat yuridik universiteti” (Toshkent davlat yuridik universiteti)**, qisqartirilgan nomi – **“TDYU” (TDYU)**;

rus tilida: **“Tashkentskiy gosudarstvennyy yuridicheskiy universitet”**, qisqartirilgan nomi – **“TGYU”**;

ingliz tilida: **“Tashkent State University of Law”**, qisqartirilgan nomi – **“TSUL”**.

Universitetning joylashgan yeri (pochta manzili): 100047, Toshkent shahri Sayilgoh ko'chasi 35-uy.

II. Universitetning maqsadi, vazifalari va funksiyalari

8. Har tomonlama rivojlangan, o'z Vatani fidoyisi, davlat va jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini his qiluvchi, huquqiy qadriyatlarni chuqur anglovchi, mamlakat kelajagi uchun vijdonan va halol mehnat qiluvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda huquq ustuvorligini targ'ib qiluvchi hamda xalqaro ta'lim maydonida raqobatbardosh, yuqori malakali zamonaviy yuridik kadrlarni tayyorlash Universitetning asosiy maqsadi hisoblanadi.

9. Quyidagilar Universitetning asosiy vazifalari hisoblanadi:

zamonaviy talablar, ilg'or xalqaro tajriba va mehnat bozori ehtiyojlari asosida yuqori malakali, ijodiy fikrlaydigan, halol kadrlar tayyorlashni ta'minlash;

yuridik ta'limning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha talaba va dars mashg'ulotlariga qo'yilgan abituriyentlar (keyingi o'rinlarda – talabalar) larning fundamental bazaviy, shuningdek, amaliy kasbiy tayyorgarligini ta'minlaydigan o'quv reja va dasturlar asosida bakalavrlar, magistrlar tayyorlash;

ish beruvchilar ehtiyojidan kelib chiqib, talabalarda tahliliy fikrlash va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish, yangi bilimlarni mustaqil ravishda egallash va ulardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishni ta'minlaydigan o'qitishning zamonaviy shakl va metodlari, pedagogik, innovatsion, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni keng qo'llash;

fanlarni tanlash imkoniyatini ta'minlagan holda Yevropa kredit tizimini (European Credit Transfer and Accumulation System) joriy etish, shu jumladan talabalar o'quv yuklamasi hajmini aniqlashning xalqaro shartli birliklarini (kreditlar) o'tkazish va jamlash tizimini qo'llagan holda o'quv jarayonini tashkil etish;

Universitetning professor-o'qituvchilar tarkibini yuqori darajada kasbiy pedagogik mahoratga, huquqiy va siyosiy madaniyatga ega mutaxassislar bilan mustahkamlash;

rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ta'lim va ilmiy muassasalari bilan hamkorlikni, qo'shma huquqiy tadqiqotlarni, professor-o'qituvchilar va talabalar o'zaro almashinuvini faollashtirish;

klinik yuridik ta'limni rivojlantirish yo'li bilan o'quv jarayoni va huquqni qo'llash amaliyoti o'rtasida uzviy aloqani ta'minlash;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, advokatura hamda boshqa tashkilotlarda amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislarni ta'lim jarayoniga keng jalb etish, ularning malakasini oshirishda samarali tizimni yaratish, xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim, tadqiqot muassasalarining yuqori malakali mutaxassislari o'quv, ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish va o'tkazish uchun jalb etish;

davlat qurilishi va boshqaruvi, sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish, bozor islohotlarini chuqurlashtirishning huquqiy asoslarini rivojlantirishning dolzarb huquqiy muammolari bo'yicha kompleks ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, ushbu sohadagi xalqaro tajribani o'rganish huquqni qo'llash amaliyotiga, o'quv jarayoniga ilmiy ishlanmalar natijalarini samarali joriy etishni ta'minlash;

axborot huquqiy texnologiyalar va tizimlarni (Legal Tech) ishlab chiqqan holda davlat va huquq sohasida ilmiy va innovatsion tadqiqotlarni o'tkazish;

xorijiy hamkorlar bilan birgalikda yuridik kadrlarni tayyorlash bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlarini (double degree) amalga oshirish, o'quv-ta'lim jarayoniga xorijiy olimlar va mutaxassislarni faol jalb qilish;

mamlakatdagi o'rta maxsus, professional, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida huquqiy fanlar bo'yicha dars berayotgan pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ular uchun zamonaviy talab va standartlarga javob beradigan o'quv adabiyotlar, o'quv-metodik materiallar yaratish;

"Elektron universitet" (E-University) tizimini joriy etgan holda ochiq, shaffof, subyektivlik va suiiste'molchiliklardan xoli bo'lgan ta'lim muhitini yaratish;

Universitetni xalqaro tan olingan ta'lim muassasalari reytingiga kiritish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali milliy yuridik ta'lim raqobatbardoshligini oshirish;

talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, huquqiy, siyosiy madaniyatini va huquqiy ongini oshirish bo'yicha samarali tizimni yaratish, ularda vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, korrupsiyaga murosasizlik tuyg'usini shakllantirish hamda rivojlantirish.

10. Universitet o'z vazifalarini amalga oshirish maqsadida quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

davlat ta'lim standartlari asosida mamlakatda o'tkazilayotgan demokratik va huquqiy islohotlar, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va zamonaviy xalqaro standartlarning yuksak talablariga javob beradigan yuqori malakali yuridik kadrlarni tayyorlashni tashkil etadi;

amaliy ish tajribasi, huquqiy va siyosiy madaniyati, kasbiy va pedagogik mahoratiga ega yuqori malakali kadrlarni ta'lim jarayoniga keng jalb etish bo'yicha choralarni ko'radi, shuningdek, tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

o'quv jarayonini ta'lim berishning kredit-modul tizimi va innovatsion o'qitish usullarini qo'llagan holda umume'tirof etilgan xalqaro ta'lim standartlari va talablariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda talabalarda yuridik faoliyatning tegishli sohalari bo'yicha tizimli tahlil qilish qobiliyati va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim dasturlari hamda klinik ta'lim asosida olib boradi;

talabalarining mustaqil tayyorgarligini chuqurlashtirishni hisobga olgan holda ish beruvchilar ehtiyojidan kelib chiqib, tahliliy fikrlash va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan, o'quv reja va dasturlar hamda o'quv-metodik materiallarni o'quv jarayonida qo'llaydi;

Ommaviy huquq, Jinoiy odil sudlov, Xususiy huquq, Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakultetlari, magistratura bo'limi doirasidagi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar hamda boshqa yuridik faoliyat sohaslarida nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni chuqurroq egallash zaruratini e'tiborga olib o'qitishning zamonaviy shakllarini joriy etgan holda amaliy mashg'ulotlarni ("keys-stadi", huquqiy xulosalar va tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash, huquqiy auditlar o'tkazish, jamoada ishlash va boshq.) tashkil etadi;

o'quv jarayonini huquqni qo'llash amaliyoti bilan uzviy bog'liqligini ta'minlashni inobatga olgan holda bitiruvchilarga nisbatan malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini mustaqil ravishda ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

nazariy bilimlarni qonunchilik faoliyati va huquqni qo'llash amaliyoti bilan uzviy bog'liqligini, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, advokatura, boshqa tashkilotlar, shu jumladan, xorijiy hamkor tashkilotlar bilan faol hamkorlik orqali ta'minlaydi;

yuridik fanlarning zamonaviy yutuqlarini, davlat-huquqiy, sud, huquqni muhofaza qilish, huquqni qo'llash sohaslaridagi demokratik o'zgarishlar tajribasini inobatga olgan holda o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar mualliflari mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish choralari nazarda tutgan holda huquqiy fanlar bo'yicha yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini tayyorlaydi;

o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash, talabalar, o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilarni global axborot-xuquqiy va ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi;

professor-uqituvchilar tarkibi mehnatini normalashtirishni faqat o'quv tusdagi tadbirlarga asoslangan holda mustaqil amalga oshiradi hamda pedagogik xodimlar tomonidan ilmiy-metodik, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-metodik, ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni bajarishni rag'batlantiradi;

Universitet tomonidan o'tkaziladigan tadqiqotlar natijalarini o'quv rejalari va ta'lim dasturlariga joriy etish uchun yuridik fanlarni o'qitish sifati va darajasini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy va o'quv-uslubiy materiallar ishlab chiqadi;

Universitetda maxsus yuridik fanlar, qonun ijodkorligi nazariyasi va amaliyoti hamda huquqni qullash faoliyatining dolzarb masalalari bo'yicha idoraviy

tuzilmalarning rahbar tarkiblari, mas'ul xodimlari tomonidan ma'ruza o'qish (shu jumladan, soatbay haq to'lash asosida), mashg'ulotlar o'tkazishni amaliyotga joriy etadi;

tizimli asosda pedagog va ilmiy xodimlarni malakasini oshirish va stajirovkadan o'tkazish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, shuningdek, talabalarining akademik almashinuvini ta'minlash bo'yicha yetakchi xorijiy ilmiy-ta'lim muassasalari, tahliliy, tadqiqot markazlari, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlaydi;

ijobiy xalqaro tajribani kengroq qo'llash, shu jumladan, talabalar o'quv yuklamasi hajmini aniqlashning shartli birliklari (kreditlar)ni o'tkazish va jamlash tizimini qo'llaydi;

sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda boshqa tashkilotlar bilan birgalikda ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etadi, ularning samaradorligini oshirish va tadqiqotlarning natijalarini amaliyotga keng joriy etish, oliy ta'lim, fan va huquqni qo'llash amaliyotining o'zaro integratsiyasini ta'minlaydi;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning norma ijodkorligida, huquqni qo'llash faoliyatida hamda ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning boshqa sohalarida foydalanish uchun yuridik fan va amaliyotning dolzarb muammolari bo'yicha axborot-tahliliy materiallar va tavsiyalar tayyorlaydi;

o'qitishning kredit-modul tizimini va talabalar bilimini baholash usullarini takomillashtirib, o'quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llaydi hamda o'quv bazasini takomillashtirib boradi;

klinik yuridik ta'limni rivojlantirish yo'li bilan o'quv jarayoni va huquqni qo'llash amaliyoti o'rtasida uzviy aloqani ta'minlaydi;

rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ta'lim va ilmiy muassasalari bilan hamkorlikni, qo'shma huquqiy tadqiqotlarni, professor-o'qituvchilar va talabalar o'zaro almashinuvini doimiy amalga oshirib boradi;

axborot huquqiy texnologiyalar va tizimlarni (Legal Tech) ishlab chiqqan holda davlat va huquq sohasida ilmiy va innovatsion tadqiqotlar o'tkazib boradi;

xorijiy hamkorlar bilan birgalikda yuridik kadrlarni tayyorlash bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlarini (double degree) mustaqil amalga oshiradi, o'quv-ta'lim jarayoniga xorijiy olimlar va mutaxassislarni faol jalb qiladi;

falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalarini olish uchun dissertatsiya ishlarini zamonaviy talablar, huquqiy fan va yuridik amaliyotning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

o'z oldida turgan vazifalarni bajarish maqsadida zamonaviy o'quv va moddiy-texnik bazani yaratadi, o'quv, ilmiy-tadqiqot bo'linmalarini, kafedralarni o'qitishning zamonaviy texnik vositalari, axborot-kommunikatsiya tizimlari va dasturiy majmualari bilan ta'minlaydi;

milliy va xorijiy yuridik hamda jismoniy shaxslar ishtirokida ilmiy tadbirlarni tashkil etadi;

O'zbekistonning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qodir mutaxassislarini tayyorlashda yuksak iste'dod sohiblariga bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z qobiliyatlarini namoyon etish hamda rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratadi;

talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish, tarbiyalashning turli shakl, usul va vositalari orqali talabalarni jamiyatning to'laqonli a'zosi, vatanparvar, vijdonan va halol mehnat qiluvchi, o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

talabalar ongi va qalbida ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy istiqlol g'oyasi va mustaqillik mafkurasini shakllantirish, talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlariga ko'maklashish, yoshlarda milliy g'urur, vatanparvarlik va fidoiyluk tuyg'ularini, ularning dunyoqarashini shakllantirish choralari ko'radi;

ma'naviy qadriyatlar va milliy madaniyatni keng targ'ib qilish, kitobxonlarni ma'naviy rivojlanishini ta'minlash, ularni milliy va jahon madaniyati durdonalariga qiziqishini oshirish hamda dunyoqarashini rivojlantirishga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshiradi;

Universitet xalqaro reytingi va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida chet el fuqarolari uchun yuridik ta'lim olish imkoniyatini kengaytiradi;

Axborot-resurs markazini huquqiy, ijtimoiy-siyosiy va iqqisodiy mazmundagi bosma va kitob mahsulotlari hamda o'quv, ilmiy va boshqa adabiyotlar, jumladan xorijiy adabiyotlar fondi, o'qitishning texnik vositalari, shuningdek, global axborot-huquqiy va ta'lim resurslarini muntazam yangilab borishni ta'minlaydi;

pullik asosda tayyorlov va boshqa o'quv kurslarini, yozgi va qishki maktablarni, shu jumladan, chet el fuqarolari uchun, tashkil etadi;

matbaa, noshirlik va hujjatlardan nusxa ko'chirish faoliyatini amalga oshiradi; ommaviy axborot vositalarini tashkil etadi;

Universitet huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey va Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha professional o'qitish markazi faoliyatiga rahbarlik qiladi, yuridik texnikumlarda ta'lim jarayonini tashkil etishni belgilangan tartibda muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi.

11. Universitet o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tgan oliy ta'lim muassasalariga berilgan huquqlar bilan bir qatorda quyidagilarni ham mustaqil ravishda amalga oshiradi:

ta'limning uzluksizligi va izchilligini ta'minlashni hisobga olgan holda Universitet qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning o'quv-uslubiy jarayonini muvofiqlashtirish, uning tuzilmasini, o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash, qabul parametrlari va ta'lim yo'nalishlarini belgilash;

yuridik texnikumlar va Universitet qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey pedagog xodimlarining mehnatini me'yorlashtirish;

xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan tuzilgan kelishuvlar asosida qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirish hamda Universitet, yuridik texnikumlar va

Universitet qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyda qo'shma fakultetlar tashkil etish;

o'qish uchun to'lov miqdorini o'rnatgan holda Universitet bakalavriat va magistraturasiga tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida qo'shimcha qabul parametrlarini belgilash;

Universitetga o'qishga qabul qilishda test sinovlari fanlari majmuasini, shuningdek, o'qish muddatlari va talabalar tomonidan o'quv mashg'ulotlariga qatnash tartibini belgilash;

Universitet va Universitet qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyda nomutaxassislik fanlarni o'qitish va fakultativ mashg'ulotlar o'tkazishni outsorsing shartlarida tashkil etish;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi barcha turdagi, shu jumladan Universitet va Universitet qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning bino va inshootlarini qurish hamda ulardan foydalanish bo'yicha kelishuvlarni tuzish va amalga oshirish;

Universitet huzurida maktabgacha va umumta'lim muassasalarini tashkil etish;

innovatsiya va ilmiy faoliyatni tijoratlashtirish hamda moliyaviy resurslarni, jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida jalb qilish uchun tijorat va notijorat tashkilotlar (startap, jamg'arma va boshqalar) tuzish;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishilgan holda moliya yili uchun Universitet va Universitet qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning daromadlar va xarajatlar smetasini, shtat jadvalini, biznes-rejasini tasdiqlash, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, bino va inshootlarni kapital ta'mirlash, rekonstruksiya qilish, xodimlariga ish haqini to'lash tizimi va tartibini belgilash;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishilgan holda yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochish, shuningdek, o'zini o'zi to'liq moliyaviy ta'minlash miqdoridan kelib chiqib, to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini belgilash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

III. Universitet faoliyatini tashkil etish

12. Universitetni bevosita boshqarish Kuzatuv kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan rektor tomonidan amalga oshiriladi.

Rektor yo'qligida uning vazifasini prorektorlardan biri (lavozimiga ko'ra) vaqtincha bajaradi.

13. Rektor:

Universitet faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi va Universitetga yuklangan vazifalarva funksiyalar bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

prorektorlar vakolatlarini belgilaydi, ular o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, Universitetning tarkibiy bo'linma rahbarlari vakolatlarini, ularning tarkibiy

bo'linmalar faoliyati uchun javobgarligini belgilaydi;

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, adliya vazirining buyruqlarini amalga oshirishni tashkil etadi;

Universitet tuzulmasini, tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi, kafedralarni tashkil etadi va tugatadi;

Universitetning barcha xodimlari va talabalari uchun bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

Universitet tarkibiy bo'linmalari rahbarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi (yuqori turuvchi idoralar nomenklaturasidagi lavozimlar bundan mustasno);

Universitet xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

Universitetning tashkiliy va moliyaviy faoliyati masalalarini hal qiladi;

Universitetning mol-mulkini boshqarish va tasarruf etish bo'yicha belgilangan tartibda qarorlar qabul qiladi;

Universitetning shtat jadvallari va xarajatlar smetasini tasdiqlaydi;

Universitet xodimlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal etadi, o'rnak ko'rsatgan Universitet xodimlarini unvonlar berish va O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari bilan taqdirlash to'g'risida takliflar kiritadi;

Universitet o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tganligi munosabati bilan berilgan huquqlarni amalga oshirish bo'yicha choralarni ko'radi, vazifalarni taqsimlaydi hamda boshqa qarorlarni qabul qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishgan holda—Universitet qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey direktorini lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi;

xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan tuzilgan kelishuvlar asosida qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshiradi hamda Universitet, yuridik texnikumlar va Universitet qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyda qo'shma fakultetlar tashkil etadi;

Universitet va uning qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyda nomutaxassislik fanlarni o'qitish va fakultativ mashg'ulotlar o'tkazishni autsorsing shartlarida tashkil etadi;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishilgan holda moliya yili uchun Universitet va uning qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning daromadlar va xarajatlar smetasini, shtat jadvalini, tasdiqlaydi, zarurat tug'ilganda ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritadi;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi barcha turdagi, shu jumladan Universitet va uning qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning bino va inshootlarini qurish hamda ulardan foydalanish bo'yicha kelishuvlarni tuzadi va amalga oshiradi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

14. Rektor byudjetdan tashqari (to'lov-kontrakt, shu jumladan, tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt) mablag'lar hisobidan:

xorijiy mutaxassislarini Universitet va uning tarkibiy tuzilmasiga konsultant, ma'ruzachi va o'qituvchi sifatida jalb etib, ularga mehnat bozorining amaldagi konyunkturasini hisobga olgan holda ish haqi va boshqa to'lovlarni belgilash;

Universitet bakalavriat, magistraturasi istiqbolli bitiruvchilari va xodimlarining xorijiy ta'lim va ilmiy muassasalari magistratura va doktoranturasida o'qishi qiymati va u bilan bog'liq xarajatlar uchun to'lovlarni, ular tomonidan o'qishni tugatgandan so'ng Universitetda kamida uch yil uzluksiz ishlash majburiyatini olish sharti bilan amalga oshirish;

Universitet va uning huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning iqtidorli talaba hamda o'quvchilariga stipendiya va grantlar ajratish huquqiga ega.

15. Ryektorga ilmiy va ilmiy-uslubiy rahbarlikdan tashqari boshqa haq to'lanadigan rahbarlik lavozimida o'rindoshlik asosida ishlashga ruxsat etilmaydi.

16. Rektor Universitet uchun belgilangan normativlardan qat'i nazar muassasaning tuzilmasini tasdiqlash va shtat birliklari sonini belgilash huquqiga ega.

17. Universitet faoliyatining asosiy masalalarini ko'rib chiqish uchun rektor (Kengash raisi) boshqaradigan Universitet kengashi (keyingi o'rinlarda – Kengash), shuningdek, tarkibi Kengash tomonidan tasdiqlanadigan hamda jamoatchilik asosida o'z nizomlariga muvofiq faoliyat yuritadigan Tadqiqot etikasi (Ilmiy-uslubiy kengash negizida) va Akademik halollik (O'quv-uslubiy kengash negizida) kengashlari tashkil etiladi.

Kengash Universitetining doimiy faoliyat yurituvchi kollegial organi hisoblanib, Universitetning tashkiliy-boshqaruv, o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-innovatsion, ma'naviy-ma'rifiy va moliya-xo'jalik faoliyatining asosiy masalalari bo'yicha kollegial qarorlar qabul qiladi.

Kengash tarkibi ryektor tomonidan tasdiqlanadi. Kengash to'g'risida nizom va uning reglamenti Kengash tomonidan tasdiqlanadi.

Kengash tarkibiga prorektorlar, fakultet dekanlari, ilmiy kotib, kafedra mudirlari, ayrim tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, yetakchi professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlar kiradi. Kengash tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va boshqa manfaatdor vazirlik, tashkilot va idoralarning vakillari, yetuk mutaxassislar kiritilishi mumkin.

Kengash qarorlarining ijrosi prorektorlar tomonidan ta'minlanadi.

Kengashning asosiy vakolatlariga quyidagilar kiradi:

Universitet va Kengashning ish rejasini tasdiqlash;

Universitetga o'qishga qabul qilishda test sinovlari fanlari majmuasini, shuningdek, o'qish muddatlari va talabalar tomonidan o'quv mashg'ulotlariga qatnash tartibini belgilash;

Universitet qabul komissiyasi faoliyati hisobotlarini tasdiqlash;

bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o'quv rejalari va dastur (sillabus)larini tasdiqlash;

bakalavriat, magistratura va maxsus dasturlar bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarining dasturlari hamda baholash mezonlarini tasdiqlash;

Universitetda yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish shaklini belgilash;

o'qish uchun to'lov miqdorini o'rnatgan holda Universitet bakalavriat va magistraturasiga tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida qo'shimcha qabul parametrlarini belgilash;

professor-o'qituvchilar tarkibi mehnatini normallashtirishda ish vaqtining o'quv tushadigan tadbirlar soatining eng kam miqdorini tasdiqlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasiga va nomli davlat stipendiyalariga nomzod talabalarni tavsiya etish;

talabgorlarni katta ilmiy xodim, dotsent va professor ilmiy unvonlariga tavsiya etish bo'yicha Oliy ta'lim, fan va inovatsiyalar vazirligi xuzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasiga taqdimnoma kiritish;

tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik institutiga qabul natijalarini tasdiqlash;

davlat attestatsiya komissiyasi hisobotlarini tasdiqlash;

chin yetim, yetim, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni Universitet Talabalar turar joyi to'lovlaridan ozod qilish masalasini ko'rib chiqish;

Universitet prorektorlari, fakultet dekanlari, shuningdek, kafedra mudirlari va boshqa tarkibiy bo'linma rahbarlarining hisobotlarini eshitish;

yuridik texnikumlarning malaka talablari, o'quv rejalari, fan dasturlarini, oraliq va yakuniy nazoratning shakli va o'tkazish vaqti davomiyligi hamda davlat attestatsiyasi uchun umumta'lim fanlari bo'yicha nazorat-baholash ko'rsatkichlarini tasdiqlash;

Universitet huzuridagi Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha professional o'qitish markaziga qabul kvotalari, o'qish uchun to'lov kontrakt summasi miqdori, malaka talablari, o'quv rejalari, dasturlari, bitiruv ishlarini tayyorlash va uni himoya qilishga doir talabalarni tasdiqlash;

bino va inshootlarni kapital ta'mirlash, rekonstruksiya qilish, xodimlariga ish haqini to'lash tizimi va tartibini belgilash;

ta'limning uzluksizligi va izchilligini ta'minlashni hisobga olgan holda Universitet qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning o'quv-uslubiy jarayonini muvofiqlashtirish, uning tuzilmasini, o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash, qabul parametrlari va ta'lim yo'nalishlarini belgilash;

yuridik texnikumlar va Universitet qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey pedagog xodimlarining mehnatini me'yorlashtirish;

innovatsiya va ilmiy faoliyatni tijratlashtirish hamda moliyaviy resurslarni, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida jalb qilish uchun tijorat va notijorat tashkilotlar (startap, jamg'arma va boshqalar) tuzish;

talabalar turar joyi to'lovlari miqdorlarini belgilash;

o'zining vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish.

Kengash kollegial muhokama qilish talab etiladigan, Universitet faoliyatiga taalluqli bo'lgan boshqa har qanday masalani ham ko'rib chiqish va uning yuzasidan qaror qabul qilish huquqiga ega.

18. Universitetda falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalarini beruvchi ilmiy kengashlar faoliyati tashkil etiladi.

19. Universitetda Kuzatuv kengashi tashkil etiladi, uning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

20. Kuzatuv kengashi asosiy vakolatlariga quyidagilar kiradi:

Universitetning uzoq va o'rta muddatli strategik rivojlantirish dasturini tasdiqlash, xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining yuqori o'rinlaridan joy olish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni belgilash hamda uning amalga oshirilishini nazorat qilib borish;

Universitetning o'rta muddat uchun shakllantiriladigan biznes-rejasi hamda daromadlar va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash, ularning ijrosini muhokama qilish;

ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar hamda ixtisosliklar bo'yicha to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul parametrlarini belgilash to'g'risida qaror qabul qilish;

Universitet oldiga qo'yilgan vazifalar ijrosi, maqsadli ko'rsatkichlarga erishish holati bo'yicha rektor va prorektorlar faoliyatini o'rganish hamda axborotini eshitish;

Universitetning ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatiga moliyaviy nazorat o'tkazish uchun qo'shimcha topshiriq berish hamda nazorat tadbirlarining natijasi yuzasidan hisobot olish;

Universitetni rivojlantirish va uning moliyaviy faoliyati bilan bog'liq masalalarni hal etish, shu jumladan nodavlat notijorat tashkiloti ko'rinishida maqsadli kapital jamg'armasini shakllantirish;

ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarining innovatsion va boshqa jamg'armalar mablag'larini sarflash tartibi va yo'nalishlarini mustaqil belgilash;

Universitet rahbari va xodimlari hamda professor-o'qituvchilari faoliyatiga baho berish, ular faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarini (KPI) tasdiqlash;

Universitet hamda uning huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey, Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha professional o'qitish markazi va Ixtisoslashtirilgan filialning rahbarlari va xodimlari, professor-o'qituvchilari, shuningdek, xorijiy mutaxassislar uchun mehnatga haq to'lash miqdori va samaradorlik mezonlariga asoslangan rag'batlantirish tartibini mustaqil belgilash;

Universitetning byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan foydalanish tartibini, shu jumladan xarajatlarning taqsimlanish ulushini mustaqil belgilash.

IV. O'quv-tarbiyaviy va ilmiy-uslubiy ishlar

21. Universitet "yurisprudensiya" mutaxassisligi bo'yicha quyidagi ta'lim turlari asosida o'qitishni amalga oshiradi:

bakalavriat – ta'lim yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilimlar beruvchi, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan (qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda uch yildan kam bo'lmagan) tayanch oliy ta'lim bosqichi bo'lib, uni tamomlaganlarga davlat attestatsiyasi yakunlariga ko'ra "yurisprudensiya" bakalavri darajasi hamda davlat namunasidagi diplom beriladi;

magistratura – bakalavriat negizida muayyan mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilimlar beruvchi, o'qish muddati bir yildan kam bo'lmagan oliy ta'lim bosqichi bo'lib, uni tamomlaganlarga davlat attestatsiyasi yakunlariga ko'ra huquq magistri darajasi hamda davlat namunasidagi diplom beriladi.

Universitet Kengashi bakalavriat va magistraturada o'qish muddatlarini o'zgartirishi mumkin.

Universitetda masofaviy, sirtqi va kechki o'qitish shakllari ham joriy etilishi mumkin.

22. Universitetda ta'lim jarayoni huquq va yuridik ta'limning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha talabalarning fundamental bazaviy, shuningdek amaliy kasbiy tayyorgarligini ta'minlash, ularning mustaqil tayyorgarligini chuqurlashtirishni hisobga olgan holda, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanish negizida, bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha davlat ta'lim standartlari hamda ish beruvchilar ehtiyojidan kelib chiqib, yuristda tahliliy fikrlash va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan o'quv rejasini, dastur va o'quv-metodik materiallar asosida tashkil etiladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklari, shu jumladan qo'shma ta'lim dasturlari (xorijiy hamkorlar bilan kelishilgan holda) bitiruvchilariga nisbatan malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlari o'quv jarayonini huquqni qo'llash amaliyoti bilan uzviy bog'liqligini ta'minlashni, talabalarda tahliliy fikrlash va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishni inobatga olgan holda, ish beruvchilar ehtiyojidan kelib chiqib mustaqil ravishda Universitet tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

23. Universitetda ta'lim dasturlarini o'zlashtirish:

bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq o'quv reja va dasturlar talablarini bajarilishi, davlat yakuniy attestatsiyasi yoki bitiruvchilar tomonidan bitiruv malakaviy ishini himoya qilinishi;

magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq o'quv reja va dasturlar talablarini bajarilishi, davlat yakuniy attestatsiyasi hamda bitiruvchilar tomonidan magistrlik dissertatsiyalari himoya qilinishi bilan tugallanadi.

24. Oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarni yuridik mutaxassislikka qayta tayyorlash belgilangan tartibda Universitet huzuridagi Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha professional o'qitish markazida amalga oshiriladi.

25. Universitetda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash qonun hujjatlarida belgilangan oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimiga muvofiq amalga oshiriladi.

26. Ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlar fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlarning davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida tanlov asosida ajratiladigan grantlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan shartnomalar, xalqaro va xorijiy tashkilotlarning grantlari va ular bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

V. Universitetning talabalari, tinglovchilari va izlanuvchilari

27. Universitetga talabalarni o'qishga qabul qilish davlat grantlari va to'lov-kontrakt asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

28. Talabalikka qabul qilingan talabalarga Universitet rektorining buyrug'iga asosan talabalik guvohnomasi beriladi.

29. Talabalar quyidagi huquqlarga ega:

Universitet axborot-resurs markazi, axborot tizimi, o'quv, ilmiy, tibbiy va boshqa bug'inlar xizmatidan foydalanish;

ilmiy-tadqiqot ishlarining barcha turlarida, konferensiyalar, simpoziumlarda ishtirok etish;

belgilangan tartib va mikdorda stipendiyalar, shuningdek, maxsus stipendiyalar olish;

yetakchi xorijiy ta'lim muassasalarida akademik almashinuvda ishtirok etish; akademik ta'til olish.

Talabalar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlardan ham foydalanishi mumkin.

30. Talabalar quyidagi majburiyatlarga ega:

o'quv reja va dasturlar talablarini belgilangan muddatlarda bajarish hamda bilimlarni egallash;

mazkur Ustav, Universitet ichki tartib-qoidalari, odob-axloq qoidalari, Universitet Talabalar turar joyi ichki tartib-qoidalariga rioya etish;

Universitet binolari va uning boshqa mol-mulkini asrab-avaylash, to'lov-kontrakt bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish.

Talabalarga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

31. O'qish davrida o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatida yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan talabalar Universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari, shuningdek, xalqaro va xorijiy tashkilotlar grantlari hisobiga hamda Universitetning xorijiy hamkorlari bilan shartnomalari asosida yetakchi xorijiy ta'lim muassasalariga talabalarning aqademik almashinuvi doirasida o'qishga yuborilishi mumkin.

Talabalarning akademik almashinuvini ta'minlash bo'yicha yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni mustahkamlash maqsadida Universitetda xorijiy mamlakatlarning talabalari ham o'z o'qishini davom ettirishi mumkin.

32. Universitetning ichki tartib-qoidalari, Odob-axloq kodeksi va Talabalar turar joyi ichki tartib-qoidalarini buzganligi uchun talabaga nisbatan belgilangan tartibda hayfsan yoki talabalar safidan chetlatish intizomiy jazo choralari qo'llanilishi mumkin.

33. Universitet huzuridagi Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha professional o'qitish markazi qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslariga qabul qilingan o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida huquqiy fanlardan dars beradigan pedagog kadrlar tinglovchi hisoblanadi.

34. Universitetda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o'rganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish maqsadida ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalari izlanuvchilari uchun tashkil etilgan oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limda o'qiyotgan fuqaro tayanch doktorant va doktorant hisoblanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganish va ular tomonidan ilmiy izlanishlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalari izlanuvchilari uchun tashkil etilgan oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limda o'qiyotgan fuqaro mustaqil izlanuvchi hisoblanadi.

Tayanch doktorant, doktorant va mustaqil izlanuvchilarni o'qitish shakllari va muddatlari, ularni qabul qilish hamda faoliyatini tashkil etish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

VI. Universitetning pedagog va boshqa xodimlari

35. Universitetda boshqaruv, professor-o'qituvchilar, ilmiy, o'quv-yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi lavozimlar nazarda tutiladi.

36. Professor-o'qituvchilar tarkibiga kafedra mudiri, professorlar, dotsentlar, katta o'qituvchi va o'qituvchi lavozimlari kiradi.

37. Universitet pedagog xodimlarini ishga qabul qilish adliya organlari va muassasalari uchun belgilanadigan tartibda o'tkaziladigan tanlov asosida amalga oshiriladi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, advokatura hamda boshqa tashkilotlarning yuqori malakali mutaxassislari o'rindoshlik bo'yicha yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soatbay ish haqi to'lash shartlarida pedagogik faoliyatiga jalb etilishi mumkin.

Xorijiy mamlakatlarning yetakchi mutaxassislari Universitetga o'quv va ilmiy-metodik ishlarni olib borish uchun shartnoma asosida, Universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobiga haq to'lagan holda hamda hamkorlik shartnomalari doirasida jalb etilishi mumkin.

38. Boshqaruv, professor-o'qituvchilar, ilmiy, o'quv-yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning huquq va majburiyatlari Universitetning ichki

tartib-qoidalar (ichki mehnat qoidalar), Odob-axloq kodeksi, Universitet Talabalar turar joyi ichki tartib-qoidalar va lavozim yo'riqnomalarida belgilanadi.

VII. Nodavlat notijorat tashkilotlari

39. Universitetda talabalar, boshqaruv, professor-o'qituvchilar, ilmiy, o'quv-yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilotlari tuzilishi mumkin.

Ushbu tashkilotlar o'z faoliyatini qonun hujjatlarga muvofiq olib boradilar.

VIII. Universitetning xalqaro faoliyati

40. Universitet professor-o'qituvchilari va xodimlarini xorijda malakasini oshirish va stajirovkadan o'tkazish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, shuningdek, talabalarning akademik almashinuvini ta'minlash bo'yicha xorijiy ilmiy-ta'lim muassasalari, tahliliy, tadqiqot markazlari, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni belgilangan tartibda amalga oshiradi.

41. Universitet tizimli asosda pedagogik va ilmiy xodimlarni malakasini oshirish va stajirovkadan o'tkazish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, shuningdek, talabalarning akademik almashinuvini ta'minlash bo'yicha yetakchi xorijiy ilmiy-ta'lim muassasalari, tahliliy, tadqiqot markazlari, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlaydi.

42. Universitet pedagog, ilmiy va boshqa xodimlar hamda talabalarning xalqaro konferensiyalar, grantlar, loyihalar va almashinuv dasturlarida, shu jumladan, akademik almashinuv doirasida ishtirok etishini moddiy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

43. Pedagog, ilmiy va boshqa xodimlarning xorijiy stajirovkasi malaka oshirishi, ularning turli xalqaro ta'lim va tadqiqot dasturlarida ishtirok etishi Universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari, shuningdek xalqaro va xorijiy tashkilotlar grantlari hisobiga hamda Universitetning xorijiy hamkorlari bilan shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

IX. Universitetning moliya-xo'jalik faoliyati

44. Quyidagilar Universitet faoliyatini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari;

bakalavriat va magistratura talabalarini to'lov-kontrakt shakli asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar;

xorijiy fuqarolarni to'lov-kontrakt shakli asosida o'qitishdan Universitet valyuta hisob raqamiga tushadigan xorijiy valyuta mablag'lari;

Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari;

byudjetdan tashqari Adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari;

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan davlat

ilmiy-texnikaviy dasturlari doirasida o'tkaziladigan grant tanlovlari natijalari bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar uchun ajratiladigan mablag'lar;

pullik kurslarni tashkil etish va boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatishdan tushadigan barcha mablag'lar;

xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari;

jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya ehsonlari va maqsadli badallari;

Universitet faoliyatida amalga oshirilgan ilmiy, o'quv va boshqa innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, shuningdek Universitetning mol-mulkini ijaraga berishdan, shartnoma asosida qonun hujjatlarida ruxsat berilgan xizmat ko'rsatish orqali tushgan mablag'lar;

qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar.

45. Universitetda, byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasi (mehnatga haq to'lash fondining 15 foizi) bilan bir qatorda, byudjetdan tashqari (to'lov kontrakt) mablag'lari hisobidan Boshqaruv, professor-o'qituvchilar, ilmiy, o'quv-yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun Maxsus jamg'arma (keyingi o'rinlarda – Maxsus jamg'arma) ularning mehnatga haq to'lash fondining kamida 185 foizidan kam bo'lmagan miqdorida tashkil etiladi.

Maxsus jamg'arma mablag'lari shtatdagi boshqaruv, professor-o'qituvchilar, ilmiy, o'quv-yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga belgilangan tartibda har oylik ustamalar belgilashga yo'naltiriladi.

Maxsus jamg'arma mablag'lari shtatdagi boshqaruv, professor-o'qituvchilar, ilmiy, o'quv-yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga har oylik ustamalar va moddiy rag'batlantirishning boshqa turlarini o'rnatishga yo'naltirilib, ularning miqdori Universitet tomonidan mustaqil belgilanadi.

Maxsus jamg'arma mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi, shuningdek har oylik ustamalarni o'rnatish mezonlari Universitet tomonidan mustaqil belgilanadi.

Universitet xodimlariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa moddiy rag'batlantirish va moddiy yordam choralari ko'rsatilishi mumkin.

46. Universitet o'z nashriyot-poligrafiya kompleksiga ega bo'lib, belgilangan tartibda ilmiy-nazariy jurnallar va gazetalar chop etadi, darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalari, qonunlarga sharhlar va boshqa adabiyotlarni nashr etadi.

47. Universitet ilmiy, o'quv va boshqa innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, shuningdek shartnoma asosida qonun hujjatlarida ruxsat berilgan boshqa xizmat ko'rsatishi va o'zining ustavida belgilangan maqsadlariga mos keladigan doiralarda boshqa tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin.

Universitet asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklarni sotish, pullik kurslarni tashkil etish va boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatish, Universitetning mol-mulkini ijaraga berishdan tushadigan barcha mablag'larni mustaqil ravishda tasarruf qiladi.

48. Universitet o'z faoliyati natijalarining buxgalteriya hisobini belgilangan tartibda amalga oshiradi, moliya va statistika hisobotlarini yuritadi.

X. Yakuniy qoida

49. Universitetni qayta tashkil etish yoki tugatish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.